

Sayroqi qushcha

Hikoya

Bugun Xosiyatxonning dadasi qafasda sayroqi qush olib keldi. Xosiyatxon singlisi Hidoyatbonu bilan qushchani ko'rib, quvonib ketishdi. So'ng qafas yoniga kelib, uni tomosha qila boshlashdi. Qushcha chiroyli, mayin patlari sariq, jajji qanotlarining uchlari oppoq edi. Uning harakatlarini kuzatib turgan Hidoyatbonu:

- Opa, qushcha nega qo'rqyapti? - dedi.

- Sen ham bir o'zing begona odamlar uyiga kirsang qo'rqasan-ku! Shunga qushcha ham qo'rqyapti.

- Voy, unda biz begonamizmi? - hayratlanib so'radi Hidoyatbonu.

- Ha, u bizni hech qachon ko'rmagan, shunga tanimaydi, - dedi so'zlarini donadonaqilib Xosiyatxon.

Opa-singil qushchani yana biroz tomosha qilishdi. Qushcha sakrashda davometardi.

- Opajon, keling, unga eng chiroyli o'yinchog'imizni beramiz.

Qushcha o'yinchoq o'ynamaydi.

- Nima bo'пти, u bilan o'ynaymiz. Keyin qushchaga begona bo'lmaymiz, - dedi sevinib Hidoyatbonu.

- Yo'-o'-q... Kel, yaxshisi qafasga daraxt shoxlaridan o'rnatamiz. Qushcha daraxtzorda uchib yurgandek mazza qilib yashaydi, - javob berdi Xosiyatxon singlisiga qarab.

- Vuy-y, qanday yaxshi! - Hidoyatbonu chapak chalib yubordi.

- Opa-singil birpasda shox-shabba yig'ib kelishdi. Nilufar opa qizlariga yordam berdi. Ular ayri shoxlardan uchtasini qafas ichiga tikka qilib qo'yishdi. Endi qafasning ichi shinamgina daraxtzorga o'xshadi. Xosiyatxon qushchaning idishiga suv quydi. Hidoyatbonu esa ikkinchi idishchani tariq bilan to'ldirdi. Ammo qushcha hali ham shoxdan shoxga pitirlab sakrardi.

- Oyijon, bu qushcha chumchuqmi? - so'radi Xosiyatxon.

- Yo'q, bolajonim, bu - kanareyka. U juda yoqimli sayraydi.

-Unga daraxtzoryoqdimikin?

- Menimcha, sizlar mehr bilan yasagan kichkina daraxtzor qushchaga juda yoqqan bo'lsa kerak, - dedi onasi.

- U hali ham qo'rqyapti-ku? - dedi Hidoyatbonu.

- Qushcha yangi joyga hali o'rgansa, sizlarga birsayrab beradiki, qoyil qolasiz.

Ertasiga kutilmaganda qushcha jarangdor ovozda sayrab yubordi.

-O'-o', qushlaring juda sayroqi ekan-ku! Ovozi uyni to'ldirib yubordi-ya, - hayratlandi dadasi.

Qushlarning sayrashida hikmat bor. Ular tinchlik-omonlik, mehr-oqibat, qut-baraka bor joyda shukrona aytib sayraydi, - dedi buvisi jilmayib.

Zamira Ibrohimova
G'uncha jurnali. 3-son